



“QISQA HIKOYA JANRIDAGI NAZARIY QARASHLAR VA TAMOYILLAR”

**“THEORETICAL PERSPECTIVES AND PRINCIPLES IN THE SHORT
STORY GENRE”**

**“ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИНЦИПЫ В ЖАНРЕ
РАССКАЗА”**

Davlatova Vazira Efl Teacher, Uzbek State World Languages University

Department of Practice Disciplines,

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: vaziraotabekovna97@gmail.com

+ 998901105601

Davlatova Vazira

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliztili amaliy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya. Ushbu maqolada qisqa hikoya janr sifatida shakllanish bosqichini va uning o'ziga xos xususiyatlarini, janr kononi ishlab chiqqan tadqiqotchilar fikrlari o'z ifodasini topgan bo'lib, qisqa hikoya janrining tadrijiy takomili, uning ta'rifi haqida so'z yuritiladi. Maqolaning ilmiy yangiligi bu- “qisqa hikoya” janri kichik epik



turga kiruvchi hikoya janridan alohida janr sifatida kiritilishi (o'zbek adabiyotshunosligida "qisqa hikoya" janri, alohida janr sifatida qaralmagan"

Kalit so'zlar: *Qisqa hikoya, epik tur, janr kononi, tadqiqotchilar*

Abstract. *This article describes the development of the short story as a genre and its peculiarities, the ideas of the researchers who developed the concept of the genre have found their expression, and the evolutionary development of the short story genre, its definition. The scientific novelty of the article is the inclusion of the short story genre as a separate genre from the story genre, which belongs to the small epic type (in Uzbek literary studies, the short story genre is not considered as a separate genre).*

Key words: *short story, epic type, evolutionary development, researchers*

Kirish. Ilk hikoya janridagi hikoyalar adabiyotshunoslikka qadimgi afsonalar, xalq og'zaki ijodi va ertaklar orqali kirib kelgan. Bu hikoyalar turli mamlakatlar va madaniyatlarda yozma va og'zaki an'analar orqali tarqalgan. XIV-asrga kelib, "Kenterberi ertaklari" va "Ming bir kecha" shu mashhur asarlar sirasiga kiradi. Kenterberi ertaklari (taxminan 1388-1400-yillarda yozilgan) shoir Jefri Choserning (milodiy 1343-1400) o'rta asr adabiy asari bo'lib, bir qator adabiy janrlarga oid yigirma to'rtta ertakdan iborat bolib, taqdirdan tortib sevgi, nikoh, mag'rurlik va o'lim haqidagi mavzularga taalluqlidir. Kirish qismidan so'ng har bir ertak Kenterberidagi Tomas Beket ziyoratgohiga ziyorat qilgan qahramonlardan biri (yakunida jami o'ttiz ikki kishi) tomonidan aytiladi. "Ming bir kecha" folklor ertaklar to'plami esa kelib chiqishi va mualliflari noma'lum bo'lgan, asosan, Yaqin Sharq va Hindiston mualliflar tomonidan yozilgan ertaklar to'plamidir. Bu ertaklar to'plami asrlar davomida shakllangan ertaklar jamlanmasidan iborat. Amerika madaniyati hikoyalarning kashshofi hisoblanib, XIX asr boshlarida mualliflar qisqa hikoyalar to'plamlarini tez-tez nashr eta boshladilar. Bu tendensiya Amerikada aka-uka Grimmlarning



ertaklaridan boshlandi, undan keyin Edgar Allen Poning “Gotika” fantastik asari, Vashington Irvingning “Rip Van Winkle” (1819), Nataniel Xotorn “Ikki marta aytilgan ertaklar” (1837 “Twice-Told Tales”) va Allan Poning “Grotesk va Arabesk ertaklari” (1845 “Tales of the Grotesque and Arabesque”) kabi ertaklar qisqa hikoyaning amerikada tug‘ilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Hikoya janri kichik epik asar bo‘lib, drama va romanlar kabi tavsifiy tilda bo‘ladi, hikoyaning drama va romanlardan farqi ushbu janr ixchamroq shaklda bo‘lishidir. L.I. Timofevning ta’rifiga ko‘ra, hikoya inson hayotidagi alohida bir voqea asosiga quriladi, unda xarakter ancha shakllangan bo‘ladi asar qahramonlari ko‘p bulavermaydi, ular birgina voqea ishtirok etadilar. Shu sababli hikoyaning hajmi katta bo‘lmaydi. Syujet asosida yotgan voqea, odatda, o‘ziga xos tugun, kulminatsiya va yechimga ega bo‘ladi- bularning bari inson hayotidagi bir epizod ramkasida yuz beradi [Timofeyev, 1971; 359].

Metyus (1907) shunday deydi:¹

*The Short-story must do one thing only, and it must do this completely and perfectly; it must not loiter or digress; it must have unity of action, unity of temper, unity of tone, unity of color, unity of effect; and it must vigilantly exclude everything that might interfere with its singleness of intention. (para. 28)*²

Hikoya janrining nazariy tamoyillari

Rus adabiyotida hikoya tabiati, uning tuzilishi, roman va hikoya o‘rtasidagi janr kanonlarining ijodiy bajarilishi, individual qahramon hikoyasi haqida V.Belinskiy, S.Lixachev, N.Nadejdin, XX. L.Golovenchenko, V. Golovko, V. Kojinov va

¹ Matthews, B. (Ed.). (1907). *The short-story: Specimens illustrating its development*. New York, NY: American

Book Company. Retrieved from www.bartleby.com/195/

² Tarjima: Qisqa hikoya faqat bitta narsani qilishi kerak va u buni to‘liq va mukammal bajarishi kerak; u mavzudan chetga chiqmasligi kerak; unda harakat birligi, kayfiyat birligi, ohang birligi, rang birligi, ta’sir birligi bo‘lishi kerak; va u uning yagona niyatiga xalaqit beradigan barcha narsalarni istisno qilishi kerak. (28-band)



M.Baxtinlar tomonidan ilmiy isbotlangan holda o'rganilgan. Kamilova Saodat Ergashevna o'zining "XX asr oxiri – XXI asr boshlari rus va o'zbek adabiyotida hikoya janri poetikasining rivoji" deb nomlangan dissertatsiyasida hikoya janr xususiyatlarining nazariy asoslari XX asrning 20-30-yillarida Rossiyada I.Vinogradov, B. Eyxenbaum, V.Shklovskiy, V.Goffenshefer tadqiqotlarida ishlab chiqilganligini, shuningdek XX asrning o'rtalaridan boshlab ilmiy qarashlar hikoya janrini boshqa kichik janrlar (novella, ocherk) dan farqlashga va uni struktur-semantik tushunishga qaratilganligi (V.Skobelev, F.Golovenchenko) va hikoyaning ichki jihatini tasniflashga yo'naltirilganligini (A.Metchenko, S.Petrova, P.Vixodtsev) ta'kidlagan. Olimlar hikoyani tadqiq etish va janr tipologiyasini ishlab chiqishda asosan xronologik tamoyilga tayanishmoqda. XX asr ikkinchi yarmida hikoya janrlari tipologiyasi N.Gulyaev, A.Bogdanov, L.Yudkevich tomonidan ishlandi.

O'zbek adabiyotida esa ushbu janrda I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, A.Abrorov, U.Normatov, B.Nazarov, S.Mirvaliev, B.Sarimsoqov, A.Rasulov, A. Ulug'ov, D.Quronov, A.Qozixo'jaevlar ilmiy izlanishlar olib borishgan [Eshniyazova, 2021; 200].

O'zbekistonda hikoya janrini tadqiq etish, asosan, ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqda: muayyan tarixiy davrda epik janrlar holatining umumiy tahlili (N.Vladimirova, M.Sultonova, X.Dosmuxamedov); badiiy metod va uslub nuqtai-nazaridan (I.Sulton, U.Normatov, N.Rahimjonov, B.Nazarov). XX asr oxirlarida o'zbek adabiyotshunoslari sharq adabiyoti janrlari poetikasini faol tadqiq qildilar, hikoya janri nazariyasi madaniyatshunoslik Yo'nalishida talqin etdi (H.Boltaboev, D.Quronov)[Sulton, 1995; 78]. XX asr oxiri – XXI asr boshi rus va o'zbek adabiyotida, rus hikoyasining janr xususiyatlari haqida qator tadqiqotlar mavjud bo'lsa ham, hikoya janri poetikasi rivoji muammosi qiyosiy jihatdan o'ta muhim bo'lishiga qaramay jiddiy tarixiy-adabiy kompleks tadqiqot sifatida chetda qoldi [Flinta, 2015;176]. Bir qator tadqiqotlarda hikoya u yoki bu zamonaviy yozuvchi ijodining umumiy kontekstida tahlil qilinadi [Maykop, 2008; 34]. Roviyy-muallif obrazini (The image of the narrator-



author) V.V.Vinogradov, M.Baxtin, MP Brandes, Yu.M. Lotman, B.O. Korman va o‘zbek adabiyotida O.Sharafiddinov, M.Qo‘shjonov, N.Karimov, U. Normatov, S. Mamajonov, S. Mirvalievlar tomonidan o‘rganilgan. Rus olimi V.Vinogradov hikoyachi (roviy) obrazini o‘rganar ekan, roviy hamisha qahramonlar qatorida bo‘lishini ta’kidlaydi. Hikoyachi qahramonlarning xulq-atvorini kuzatadi, ularga baho beradi, xulosalar chiqaradi. – Bu obrazda, avvalo, yozuvchining kechinmalari mujassam. Shuningdek, asar qahramonlari o‘rtasidagi kurash hikoya roviyning o‘zi bilan kurashining psixologik jihatini ko‘rsatadi. – Ko‘rinib turibdiki, asarda hikoyachi nafaqat qahramonlar taqdirini, balki o‘zining “men”ini ham ifodalaydi. Rabg‘uziyning ilohiy manbalar va hadislarga asoslangan “Qissai Rabg‘uziy” (The stories of Rabguzi) o‘zbek mumtoz adabiyotidagi hikoyasi janrining mukammal namunasi. Klassik hikoyanavislik zamonaviy hikoyanavislikning vujudga kelishida asosiy ro‘l o‘ynadi. Zamonaviy o‘zbek realistik hikoyasining ilk namunasi Hamzaning “Yangi saodat”idir. XIX asrning o‘rtalarida taniqli yozuvchi Edgar Allan Po qisqa hikoyaning mavjudligi huquqining birinchi tarafdori edi (Metyu,1907: 26).

TADQIQOT USULLARI

Ushbu maqolada jahon adabiyotida hikoya janrining tajridiy rivojlanishini tahlil qilish hamda o‘rganish maqsadida ilmiy ijod metodologiyasining asosiy metodlari hisoblangan tavsiflash, tarixiy qiyosiy va diaxronik kabi usullaridan foydalaniladi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Qisqa hikoya janrining kelib chiqishi afsona va Injil oyatlari rivoyatlari, o‘rta asr va’zlari va romantikasi, ertaklar, folklor, balladalar va XVIII asrda nemis gotikasining yuksalishiga borib taqalishi ta’kidlandi. 1937 yilda Elizabet Bowen “Qisqa hikoya - ushbu asrning yosh san’atligini va kino va fotografiya bilan bir vaqtda rivojlanganligini” ta’kidlagan [May, 1994; 152]. Mary Rohrbergerning so‘zlariga



ko'ra, "hikoya badiiy asari adabiyot tarixi kabi qadimgi.... Ammo qisqa hikoya, bugungi kunda biz bilganimizdek, adabiy janrlarning eng yangisidir [Rohrberger, 1976; 80]. Charlz May shuni ta'kidlaydiki, "qisqa hikoya o'z boshidanoq qadimgi romantikaning metaforik uslubi va yangi realizmning metonimik uslubini birlashtirgan gibrid shaklda bo'lgan"[May, 2013; 72]. Qisqa hikoya o'z-o'zidan shakllangan bo'lsa-da, she'riyat, drama, epik yoki roman kabi boshqa janrlar bilan taqqoslaganda nazariy e'tiborsiz qoldirilgan. Yarim asr oldin bu janr haqida nazariya yuritganlar adabiyot tanqidchilari emas, balki uning amaliyotchilari edi: o'n to'qqizinchi asrda Edgar Allan Poe, Herman Melville va Anton Chekhov; va XX asrda Genri Jeyms, Flanneri O'Connor, Xulio Kortazar va Eudora Welty va boshqalar. Qisqa hikoyani dolzarb fan sifatida tadqiq qilish uchun qaratilgan sa'y-harakatlar Syuzan Lohaferning nazariy to'plami "Coming to Terms with the Short Story", 1983) va uning hammuallifi bilan, "Chorrahadagi qisqa hikoyalar nazariyalari" (Short Story Theories at a Crossroads, 1989) va "Biz aytadigan ertaklar: qisqa hikoyaning istiqbollari" (The Tales We Tell: Perspectives on the Short Story, 1998) kabi asarlar bilan izohlash mumkin [Lohafer, 1998;19]. Lohafer hikoyadagi boshqa har qanday komponentlar to'plamiga qaraganda, hikoyani xulosa (closural) elementlari bilan bog'laydi va o'quvchining hikoya va xulosadan oldingi qarash haqidagi idrokini tahlil qiladi (perception of storyness and preclosure (those instances in which the reader senses that the story might end although it does not). O'quvchi hikoya tugashi mumkin bo'lsa-da, tugashi mumkinligini sezadigan holatlar). Xuddi shu qatorda, Jon Gerlaxning "Amerika qisqa hikoyasidagi yakun qismi va uning tuzilishi" (Toward the End: Closure and Structure in the American Short Story,1985) qisqa hikoya uchun hikoyani yakunlash (closure) toifalarining keng qamrovli tizimini yaratadi, bu oxirlar (endings) bizning butun matnni va endings o'zlarini o'qishimizni shart qiladi degan taxminga asoslanadi [Gerlach, 1985; 46]. Xuddi shu jilddagi asarlar o'rtasidagi turli xil o'zaro bog'liqlikni ta'kidlagan avtonom qisqa hikoyalarni o'rganish nazariy tahlil uchun ketma-ket "qisqa hikoya sikli" deb nomlangan yangi janrni taqdim etdi (Forrest Ingram, 1971), "qisqa



hikoyalar ketma-ketligi” (Luscher, 1989) va “Qisqa hikoyalar kompozitsiyasi” (Lund Dictacksn, 1999; 148). Rolf Lund Roksitn ta’kidlaganidek, qisqa hikoya kompozitsiyalari Bokkaching “Dekameron” yoki Chaucerning “Kanterbury ertaklari”ga qaytadi va eng qadimgi dostonlarni ifoda etgan mustaqil, ammo o‘zaro bog‘liq hikoyalar va epizodlarga asoslanadi. Ularning zamonaviy hamkasblarini qisqa hikoyalari quyidagilar deyishimiz mumkin: Jeyms Joys tomonidan ishlab chiqilgan “Dublinliklar”(“Dubliners”, 1914), Shervud Anderson “Winsburgda”, “Ogayo” (“Ohio”,1919), “Ernest Xeminguey bizning davrimizda” (“Ernest Hemingway in In Our Time”,1925). Kompozitsiyaning umumiy o‘ziga xosligi “xilma-xillik va birlik, farq qilish va o‘zaro bog‘liqlik, parchalanish va uzluksizlik, boshlanishi va tugashi”o‘rtasidagi asosiy keskinlikni ifodalaydi.³ Shuningdek, Farhat Iftekharrudinning “Postmodern qisqa hikoya: shakllar va masalalar” (The Postmodern Short Story: Forms and Issues, 2003) asari keyingi bosqichdagi hikoya janridagi evolyutsiyani postmodernizm badiiy asarlarini tahlil qilish orqali, bu adabiy oqim haqiqatning yolg‘onligini, badiiy usullarni badiiy asar mavzusiga moslab aylantirish haqida ta’kidlaydi⁴. V. H. Nyuning “Nutq va zo‘ravonlik haqidagi tushlari: Kanada va yangi Zelandiyadagi qisqa hikoya san’ati” (Dreams of Speech and Violence: The Art of the Short Story in Canada and New Zealand, 1987),undan keyin Jerald Linchniki “bitta va ko‘p: ingliz-kanadalik qisqa hikoyalar tsikllari” (Gerald Lynch’s The One and the Many: English-Canadian Short Story Cycles , 2001), asalari birinchilardan bo‘lib

³ Lundén, *The United Stories of America*, 12.

⁴ *The Postmodern Short Story*, eds Farhat Iftekharrudin et al., Westport, CT: Praeger, 2003. Among recent interdisciplinary contributions to the field, see *Contemporary Debates on the Short Story* , eds José R. Ibáñez, José Francisco Fernández and Carmen M. Bretones, Bern: Peter Lang 2007.



janr rivojlanishini postkolonial nuqtai nazardan o'rgangan.⁵ Saksoninchi yillarda Ueyn (Wayne) nashriyoti ikkita seriyani ochdi, ulardan biri qisqa badiiy asarlar tadqiqotlari, ikkinchisi Qisqa hikoyaning tanqidiy tarixi to'g'risida; shakl bo'yicha maxsus masalalar "Modernistik badiiy asarlar tahlili" ("Modern Fiction Studies", 1982) va Gollandiyaning poetics jurnali (the Dutch journal Poetics, 1988) tomonidan nashr etilgan; Ingliz tilidagi qisqa hikoyalar jurnali (the Journal of the Short Story in English) 1983 yilda tashkil etilgan, ikki yilda bir marta o'tkaziladigan tadbirga aylanishi kerak bo'lgan birinchi xalqaro konferensiya 1989 yilda boshlangan; va 1994 yilga kelib, jurnalning asosini belgilaydigan qisqa hikoya janri allaqachon avtonom o'rganish sohasini tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matthews, B. (Ed.). (1907). *The short-story: Specimens illustrating its development*. New York, NY: American Book Company. Retrieved from www.bartleby.com/195/
2. Lundén, The United Stories of America, 12.
3. The Postmodern Short Story, eds Farhat Iftekharrudin et al., Westport, CT: Praeger, 2003. Among recent interdisciplinary contributions to the field, see Contemporary Debates on the Short Story, eds José R. Ibáñez, José Francisco Fernández and Carmen M. Bretones, Bern: Peter Lang 2007.
4. W.H. New's Dreams of Speech and Violence: The Art of the Short Story in Canada and New Zealand, Toronto: Toronto University Press, 1987; Gerald Lynch's The One and the Many: English-Canadian Short Story Cycles (1987), rpt. Toronto:

⁵ W.H. New's *Dreams of Speech and Violence: The Art of the Short Story in Canada and New Zealand*, Toronto: Toronto University Press, 1987; Gerald Lynch's *The One and the Many: English-Canadian Short Story Cycles* (1987), rpt. Toronto: Toronto University Press, 2001; *Telling Stories: Postcolonial Short Fiction in English*, ed. Jacqueline Bardolph, Amsterdam: Rodopi, 2001.



Toronto University Press, 2001; *Telling Stories: Postcolonial Short Fiction in English*, ed. Jacqueline Bardolph, Amsterdam: Rodopi, 2001.